

# **Asror Kambarov "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi**

**2025 30 Iyun**

Shuni faxr bilan ma'lum qilamizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-iyundagi "Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, "Uzbekistan Airways" AJ Parvoz xizmati departamenti 3-parvoz otryadi Airbus A320 havo kemasi ikkinchi uchuvchisi Asror Kambarov "Kelajak bunyodkori" yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Ushbu faxriy mukofot tashabbuskorligi, yuksak kasbiy mahorati, rivojlanishga intilishi va mamlakat ravnaqiga munosib hissa qo'shgan yoshlar vakillariga beriladi. Asror Kambarov o'zining halol mehnati, qat'iyati va kasbga mas'uliyatli munosabati bilan haqli ravishda O'zbekiston fuqaro aviatsiyasini rivojlantirishda faol ishtirok etayotgan yosh mutaxassisning munosib namunasiga aylandi.

Asror 2015-yilda Toshkent temir yo'l texnikumini elektrotexnik, 2021-yilda Riga aeronavigatsiya institutini uchuvchi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan. 2022-yildan buyon Airbus A320 havo kemasining ikkinchi uchuvchisi vazifasini muvaffaqiyatli bajarib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu strategik yo'nalish "Uzbekistan Airways" AJ faoliyati doirasida ham faol amalga oshirilmoqda, bu yerda yosh mutaxassislarga o'qish, martaba o'sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Aviakompaniya jamoasi nomidan Asror Kambarovni munosib mukofot bilan samimiy tabriklaymiz! Sizga mustahkam sog'lik, yangi yutuqlar va vatanimiz aviatsiyasiga xizmat qilish yo'lida yangi muvaffaqiyatlar tilaymiz!